
RISHTON TUMANI DELEGATSIYASINING TURKIYADAGI BIRINCHI KUNI QANDAY KECHDI?

Avval xabar berib o'tganimizdek, Rishton tumani hokimi boshchiligidagi delegatsiya a'zolari Turkiyaning Iznik shahrida bo'lib turishibdi. Bugun delegatsiya a'zolarini kutib olish marosimi o'tkazildi. Rishton tumanidan tashrif buyurgan mehmonlarni Iznik shahri hokimligi delegatsiya a'zolari tantanli ravishda kutib olishdi. Shundan so'ng, faollar o'rtasida kulolchilik hamda savdo-iqtisodiy sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan uchrashuv tashkil etildi. Ushbu uchrashuv davomida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda samarali faoliyat olib borishga, shuningdek Rishton imidjini ilgari surish va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga kelishib olindi. Shuningdek, delegatsiya a'zolari Iznik shahridagi kulolchilik muzeyida ham bo'lishdi. Rasmiy uchrashuv chog'ida "Mingboshi keramik" korxonasi rahbari Shokirjon Ahmadjonov turkiyaliklar bilan shartnoma imzoladi. Turkiyaning qadimiy shaharlardan biri bo'lmish Iznik shahri o'zining kulolchilik mahsulotlari bilan butun dunyoni rom etib kelmoqda. Tashrifning birinchi kunida tumanimiz delegatsiyasi a'zolari turkiyalik kulollar va tadbirkorlar bilan ham uchrashishdi va ularga mamlakatimizda tadbirkorlarga berilayotgan imtiyozlar, Rishton tumani salohiyati, investitsion jozibadorligi haqida ma'lumot berishdi. Shuningdek, hukumatimiz tomonidan Rishton kulolchiligiga berilayotgan yuksak e'tibor va ularning faoliyatini rivojlantirishi uchun berilayotgan soliq imtiyozlari xususida gapirib berishdi. Aytish joizki, Bursa viloyati Iznik shahri va Rishton tumani o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolanishiga tayyorgarlik ko'rilmogda. Safar taassurotlari haqida tezkorlik bilan ma'lumot berib boramiz.

2022-06-23 17:52:21